

Norqulov Husniddin Do‘sbekovich,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*



Sharipov Abror Islomovich,
Toshkent viloyati IIBB kotibiyati mudiri, mayor



TABIAT VA ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDA JAMOATCHILIK NAZORATINING ROLI

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoatchilik nazorati jamiyatning turli sohalari rivojini ta‘minlash va mavjud muammolarni bartaraf etishda olib boriladigan amaliy xatti-harakatlar majmuyi ekanligi, uning turli ko‘rinishlari tarixning turli davrlarida muayyan bosqichlarni bosib o‘tayotganligi, har qanday demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lgan jamiyatda mavjud jarayonlar, islohotlar bevosita jamoatchilik ishtirokisiz amalga oshmasligi kabi masalalari keltirilgan.

Jamoatchilik ekologik nazoratni tashkil etish, birinchi navbatda, qonunchilik asoslariga tayanishga, uni amalga oshiruvchi mexanizmlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga, qolaversa, nazorat subyektlarining ongli harakati, nodavlat tashkilotlari, yoshlar uyushmalari, ko‘ngilli fuqarolarning hamjihatlikdagi faoliyati tizimning barqarorligini ta‘minlashga xizmat qilishi, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta‘minlashda ekologik nazorat va uning huquqiy asoslari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishda muhim masala ekanligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье утверждается, что общественный контроль – это совокупность практических действий, предпринимаемых для обеспечения развития различных слоев общества и устранения существующих проблем, что различные его

формы проходят определенные этапы в разные периоды истории и что он существует в обществе, где любые демократические ценности являются приоритетом. Процессы и реформы не могут быть реализованы без прямого участия общественности.

Организация общественного экологического контроля, прежде всего, опирается на правовую базу, правильную организацию механизмов, его реализующих, кроме того, сознательные действия субъектов контроля, общественных организаций, молодежных объединений, граждан-добровольцев служат обеспечить стабильность системы и было подчеркнуто, что экологический контроль и его правовая основа в обеспечении экологической стабильности являются важным вопросом развития деятельности институтов гражданского общества.

Annotation. *This article argues that social control is a set of practical actions taken to ensure the development of various sectors of society and eliminate existing problems, that its various forms go through certain stages in different periods of history and that it exists in a society where any democratic values are a priority . Processes and reforms cannot be implemented without direct public participation.*

The organization of public environmental control, first of all, relies on the legal framework, the correct organization of the mechanisms that implement it, in addition, the conscious actions of the subjects of control, public organizations, youth associations, volunteer citizens serve to ensure the stability of the system and it was emphasized that environmental control and its legal the basis for ensuring environmental stability are an important issue for the development of the activities of civil society institutions.

Tayanch soʻzlar: *jamoatchilik ekologik nazorati, nazorat subyektlari, nodavlat tashkilotlar, ekologik madaniyat, ekologik tarbiya, ekologik barqarorlik, “Ekologik nazorat toʻgʻrisida”gi Qonun, atrof-muhitni muhofaza qilish.*

Ключевые слова: *общественный экологический контроль, субъекты контроля, общественные организации, экологическая культура, экологическое образование, экологическая устойчивость, Закон «Об экологическом контроле», охрана окружающей среды.*

Keywords: *public environmental control, subjects of control, non-governmental organizations, ecological culture, ecological education, ecological stability, Law “On Ecological Control”, environmental protection.*

Kirish. Soʻnggi yillarda Oʻzbekistonda qonunlarni takomillashtirish va ijrosini taʼminlash bilan bogʻliq qator islohotlar olib borilmoqda. Aytish kerakki, jamiyatda mavjud umumiy muammolarni yechish faqat tegishli qonunlarni qabul qilish va uning ijrosini taʼminlash bilan chegaralanmaydi. Jamoatchilik nazorati amaldagi qonunchilikka boʻysunish bilan birga, qonunlarning mazmun-mohiyatini teran anglash, his qilish, masʼuliyatli boʻlish, boshqalarga targʻib qilish kabi xususiyatlarni mujassamlashtirish natijadorlik ortadi. Bu esa

fuqarolarning ruhiy, ma'naviy-axloqiy sifatlariga bog'liq bo'lgan hodisadir.

Bugun jahonda va mamlakatimizda kuzatilayotgan global ekologik inqirozlarning salbiy ta'sirlarini minimallashtirish davlat va jamiyat o'rtasida o'zaro hamkorlikni talab etmoqda. Qolaversa jamiyatda ekologik nazoratning yangi usul va vositalarini yaratish, amaliyotga joriy etish vazifalarini shartlab qo'ymoqda. Shu bilan birga, aholining ekologik madaniyatini oshirish kechiktirib bo'lmaz vazifalar qatoridan o'rin olib ulgurgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida mavjud voqelikka quyidagicha yondashgan: "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyati haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma'muriy yo'l bilan hal etib bo'lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Ayni paytda yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, hayvonot va o'simlik dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi faoliyat samarasini yanada oshirish choralari ko'rish lozim"¹.

Ta'kidlash joizki, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda ekologik nazoratning shakl va turlari, amalga oshirish tartibi, nazorat faoliyatining tarkibi va muvofiqlashtirish mexanizmi, davlat nazorati organlarining jamoatchilik bilan munosabatlari to'liq qamrab olinmagan. Shu bilan birga, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazorat xizmatlari vakolatlari o'rtasidagi chegara hamda ular tomonidan o'z vazifalarini bajarish tartibi belgilanmagan.

Maqsad va uni asoslash. Jamoatchilik ekologik nazorati ham umumiy holda aks ettirilgan. Qolaversa, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunlarda havola qiluvchi normalar nazarda tutilganki, bu ham amaliyotda ayrim qiyinchiliklar tug'dirmoqda. "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda esa suv va suvdan foydalanish borasida idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha normalar belgilanmagan. Yer kodeksida yerni muhofaza qilish va yerdan oqilona foydalanish sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi maxsus vakolatli davlat organlari ro'yxati hamda sohada idoraviy, ishlab chiqarish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish bo'yicha normalar mavjud emas. Bunday holatlar sohaga tegishli boshqa qonunlarda ham muayyan darajada kuzatiladi.

¹ Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O'zbekiston" нашриёти. 2021. – Б. 392.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda ekologik nazoratning shakl va turlari, amalga oshirish tartibi, nazorat faoliyatining tarkibi va muvofiqlashtirish mexanizmi, davlat nazorati organlarining jamoatchilik bilan munosabatlari to'liq qamrab olinmagan.

Har qanday demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lgan jamiyatda mavjud jarayonlar, islohotlar bevosita jamoatchilik ishtirokisiz amalga oshmaydi. Jamoatchilik nazorati yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jamiyatning turli sohalari rivojini ta’minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan amaliy xatti-harakatlar majmuyidir.

Ekologik barqarorlikni ta’minlashda ekologik nazorat juda katta ahamiyatga ega. Shu boisdan ham Ekologiyaga oid davlat siyosatini yurgizishda Ekologik nazorat juda muhim. Ekologik nazorat va uning huquqiy asoslari fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini oshirishga xizmat qiladi. 2010-yilda O‘zbekiston Respublikasining “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ga muvofiq ishlab chiqilgan “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni² qabul qilindi.

Har qanday demokratik qadriyatlar ustuvor bo‘lgan jamiyatda mavjud jarayonlar, islohotlar bevosita jamoatchilik ishtirokisiz amalga oshmaydi. Jamoatchilik nazorati yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, jamiyatning turli sohalari rivojini ta’minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish yuzasidan olib boriladigan amaliy xatti-harakatlar majmuyidir. Bu tizim mamlakatimizda qadimdan mavjud bo‘lib, uning turli ko‘rinishlari tarixning turli davrlarida muayyan bosqichlarni bosib o‘tgan. Masalan, Buyuk donishmand Nizomulmulk o‘zining “Siyosatnoma” asarida “Barcha ishlarni maslahat bilan amalga oshirish kishining mustahkam irodasidan, oqilligi va dunyoqarashidan dalolat beradi. Podshoh bir ishni amalga oshirmoqchi yoki qandaydir zaruratni hal etmoqchi bo‘lsa, u albatta dono qariyalar va ulug‘lar bilan mashvarat va kengash qilishi lozim bo‘lgan. Har birlari o‘z fikrlarini aytib, podshoh ra’yi bilan solishtirib, bir-birlarining fikrlarini eshitib va har taraflama o‘ylab, keyin o‘rtada ma’qullangan fikrlarni tanlaydilar. Ko‘pchilik bo‘lib qabul qilingan tadbir eng savobli bo‘ladi va shunday yo‘l tutish kerak”³, deb ta’kidlagan.

Buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur saltanatida “Kengash” deb nomlangan jamiyatning turli soha vakillari (din vakillari, sipohlar, raiyat, donishmanlar, ulamolar va hokazo)ni o‘zida jamlagan tuzilmada eng muhim masalalar o‘zaro maslahat asosida hal etilgani manbalardan ma’lum. O‘zbekistonlik olim, professor T. Alimardonov o‘zining “Amir Temur imperiyasi” asarida “Turkiy davlatlar boshqaruvi tarixida Kengash jamoaviy manfaatlarni ifoda etish, umumiy maqsadlarni hamjihatlikda ta’minlash, moddiy ne’matlarni tasarruf etish, taqsimlash, tashqi va ichki tajovuzlardan himoyalash, tartib va intizomga doir qonun-qoidalarni qabul qilish, o‘ziga yetakchi va rahnamolarni saylash, bir so‘z bilan aytganda, boshqaruv funksiyalarini tashkil etish muhim siyosiy tartibotlar sifatida shakllangan”⁴ deb ifodalagan.

² Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 27 декабрдаги “Экологик назорат тўғрисида”ги ЎРҚ-363-сонли Қонуни // <https://lex.uz/docs/2304953>

³ Низомулмулк. Сиёсатнома ёки сияр ул-мулк. – Тошкент: Адолат, 1997. – Б. 98.

⁴ Тўлқин Алимардонов. Амир Темур империяси. Янги аср авлоди, 2021. – Б. 117.

Olimning qayd etishicha, “Ajdodlarimiz davlat idorasi masalasida Kengashning ahamiyatiga nihoyatda katta e’tibor qaratishgan. Bunday ehtiyojning mavjudligi a’yonlarda adolat g’oyalari nisbatan o’zgacha intilish bo’lganligidan dalolat beradi. Ya’ni Kengashni tashkil etish adolat, tenglik, xolislik, kenglik, iroda, marhamat, iltifot, birodarlik, bag’rikenglik, hamjihatlik, insonparvarlik ijtimoiy turmushning madaniyatiga aylangan”⁵.

Davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldor har qanday masalaning yechimi xalq bilan o’zaro tashkil qilinishi, mavjud muammolarni bartaraf etishda jamoatchilik fikri eshutilishi, zarur bo’lganda muayyan tizim nazoratini jamoatchilikka topshirilishi ijobiy o’zgarishlarni taqdim etadi. Bu jahon tajribasida ham, milliy amaliyotda ham o’z tasdig’ini topgan. “Taraqqiyot strategiyasi markazi” ijrochi direktori E.Tulyakovning quyidagi qarashlari keltirilgan fikrlarni mazmunan to’ldiradi: “Aslida jamoatchilik nazorati yurtimizda uzoq tarixiy ildizlarga ega. Bu institut bizda qadim-qadimdan oqsoqollar Kengashi ko’rinishida namoyon bo’lib kelgan. Bu Kengashlar mahallalardagi obodonlashtirish, aholi muammolarini hal etish, o’zini-o’zi himoya qilish, hamisha ogoh va hushyor bo’lish, farzandlar tarbiyasiga loqayd qaramaslik va boshqa jamoat ishlari bilan shug’ullanadigan jamoatchilik tuzilmasi hisoblangan”⁶.

Hozirgi davrga kelib, jahonda demokratik tamoyillarga bo’lgan e’tiborning kuchayib borishi natijasida davlatning vakolatlarini jamiyat a’zolariga o’tkazish tendensiyasi ortib bormoqda. Global makonning muayyan subyekti bo’lgan O’zbekistonda ham kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi natijasida jamoatchilik nazorati tushunchasiga bo’lgan e’tiborni oshirdi. Shu o’rinda jamoatchilik nazorat tushunchasining umumiy mazmuniga bo’lgan ayrim qarashlarni o’rganish ehtiyoji yuzaga chiqadi. Jamoatchilik nazoratiga berilgan aksariyat ta’riflar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha to’ldiradi. Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda quyidagi ta’rifni keltirish mumkin: jamoatchilik nazorati – bu davlat boshqaruv organlari faoliyatini kuzatish, tahlil qilish, baholash asosidagi hatti-harakatlarini aniqlashga qaratilgan jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatdir. Manbaga ko’ra, “O’zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari, shuningdek, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro’yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir”⁷.

Davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldor har qanday masalaning yechimi xalq bilan o’zaro tashkil qilinishi, mavjud muammolarni bartaraf etishda jamoatchilik fikri eshutilishi, zarur bo’lganda muayyan tizim nazoratini jamoatchilikka topshirilishi ijobiy o’zgarishlarni taqdim etadi. Bu jahon tajribasida ham, milliy amaliyotda ham o’z tasdig’ini topgan.

⁵ Ўша манба. – Б. 119.

⁶ Туляков Э. Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим // <https://strategy.uz/index.php?news=799>

⁷ Жамоатчилик назорати // <https://advice.uz/uz/document/2356>.

Islohotlar ko‘lamini bevosita jamoatchilik e‘tiboriga yetkazish, jamiyat a‘zolarini amaldagi islohotlarning subyekti sifatida qarash hamda uning amaldagi qonunchilik asosida mustahkamlanishi mavjud muammolarni bartaraf etishning tizimli yechimi bo‘la oladi.

Yaqin o‘tmishimizda mavjud bo‘lgan totalitar boshqaruvga ko‘ra, davlat manfaatlari har qanday jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yilgani ma‘lum. Bu borada jamiyat a‘zolariga amaldagi qonunchilikni modernizatsiya qilish jarayonlarida ishtirok etish, ijtimoiy-siyosiy hayotda fuqarolarning ishtirokini ta‘minlash haqida hech qanday so‘z bo‘lishi ham mumkin emas edi. Biroq taraqqiy etgan davlatlar tajribasi uning teskari qiyofasini ko‘rsatdi. Ya‘ni har qanday ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda keng jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash barcha sohalar rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani ayni haqiqat.

So‘nggi yillarda jamoatchilik nazorati tushunchasiga bo‘lgan e‘tibor keskin ortdi. Bunga asosiy sabab esa davlatning funksiyalari jamiyatga o‘tib borishi, jamiyatda liberal muhitni taqdim etishi bilan bog‘liq. Davlatimiz rahbarining “Davlat organlari huzurida jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori⁸ asosida barcha davlat tashkilotlari tarkibida jamoatchilik kengashlari tashkil etilishi belgilanib, mazkur kengash jamiyat a‘zolarining erkinligi va faolligini oshiruvchi muhim vosita deb hisoblashga asoslar yetarli.

2017-yil qabul qilingan “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun keng jamoatchilik tomonidan ijobiy qarshi olindi. Qonunning 3-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari (bundan buyon matnda “fuqarolar” deb yuritiladi), fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, shuningdek qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari jamoatchilik nazorati subyektlaridir”⁹, deb belgilab qo‘yildi.

Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi. Islohotlar ko‘lamini bevosita jamoatchilik e‘tiboriga yetkazish, jamiyat a‘zolarini amaldagi islohotlarning subyekti sifatida qarash hamda uning amaldagi qonunchilik asosida mustahkamlanishi mavjud muammolarni bartaraf etishning tizimli yechimi bo‘la oladi.

Bevosita tadqiqot obyektimiz bo‘lgan jamoatchilik ekologik nazorati mavzusi ham ayni davrning dolzarb masalalaridan biridir. Hozirgi davrga kelib, iqlim o‘zgarishi, tabiiy zahiralarning tugab borishi, atrof-muhitning keskin ifloslanishi va boshqa qator ekologik muammolarning ortib

⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги “Давлат органлари хузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3837-сон қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.07.2018 й., 07/18/3837/1454-сон; 30.05.2019 й., 06/19/5733/3216-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.06.2022 й., 06/22/154/0524-сон; 13.04.2023 й., 06/23/49/0210-сон).

⁹ Ўзбекистон Республикасининг 2018 йил 12 апрелдаги “Жамоатчилик нazorati тўғрисида”ги ЎРҚ-474-сонли Қонун // <https://lex.uz/docs/3679092>

borayotgani insoniyat uchun tashvishli holat sifatida qayd etilmoqda. Afsiski, muammoni yechish yoʻlida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar, amaliy xatti-harakatlar kutilgan natijani berayotgani yoʻq. Hattoki, ekologik guruhlar, harakatlar, siyosiy partiyalarning tashkil etilishi ham ekologik barqarorlikka erishishni taʼminlay olmayapti. Shu sababli oʻzining ekologik barqarorligini taʼminlashga intilayotgan aksariyat davlatlar turli yechimlarni izlash va amaliyotga joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Jamoatchilik ekologik nazorati esa ekologik barqarorlikka ijobiy taʼsir koʻrsatuvchi asosiy vositalardan biri sifatida qaralayotgani fikrimizni tasdiqlaydi. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, jamoatchilik ekologik nazorati – bu mavjud tabiiy resurs zahiralardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilishga doir faoliyatda fuqarolarning davlat organlari bilan hamkorligi, qonun buzilish holatlari kuzatilganda unga chek qoʻyish, oldini olishga qaratilgan jamoat faoliyatidir.

Fuqarolik jamiyati mavjud boʻlishining asosiy shartlaridan biri – jamiyatning oʻzini-oʻzi boshqarish va nazorat qilish tamoyiliga moslik. Shu sababli, ekologik nazoratning jamoatchilik tomonidan amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Tabiat va inson munosabatlarida ekologik muammolar, eng avvalo, insonning oʻziga taʼsir koʻrsatadi. Boshqacha aytganda, atrof-muhit muhofazasidan, birinchi navbatda, jamoatchilikning oʻzi manfaatdor. Shuningdek, xalqaro hujjatlarda ham atrof-muhitni muhofaza qilish davlat va keng jamoatchilikning oʻzaro hamkorligi asosida amalga oshirilishi belgilab qoʻyilgan.

Jamoatchilik ekologik nazorati muayyan mintaqadagi ekologik vaziyatdan kelib chiqib tashkil etiladi va jamiyatda mavjud boshqaruv tizimi, huquqiy normalarga koʻra olib boriladi. Rossiyalik tadqiqotchi O.Dubovik jamoat ekologik nazoratining quyidagi shakllarini ajratadi, jumladan:

- a) jamoatchilik eshituvlari va ularning oʻziga xos shakli – parlament eshituvlari;
- b) referendum;
- d) jamoat ekologik ekspertizasi;
- e) ommaviy axborot vositalariga murojaat qilish;
- f) huquqni muhofaza qiluvchi organlarga va sudga shikoyatlar, arizalar, daʼvolar yuborish¹⁰.

M.I. Vasilyeva jamoatchilik ekologik nazoratini atrof-muhitni muhofaza qilishda jamoatchilik ishtirokining aniq sohasi sifatida qayd etadi. Olima mazkur yoʻnalishda quyidagi jihatlarni alohida koʻrsatadi:

Fuqarolik jamiyati mavjud boʻlishining asosiy shartlaridan biri – jamiyatning oʻzini-oʻzi boshqarish va nazorat qilish tamoyiliga moslik. Shu sababli, ekologik nazoratning jamoatchilik tomonidan amalga oshirilishi muhim ahamiyatga ega. Tabiat va inson munosabatlarida ekologik muammolar, eng avvalo, insonning oʻziga taʼsir koʻrsatadi. Boshqacha aytganda, atrof-muhit muhofazasidan, birinchi navbatda, jamoatchilikning oʻzi manfaatdor.

¹⁰ Дубовик О.Л. Экологическое право: учеб. 3-изд., перераб. и доп. М.: Проспект, 2010. С-37.

Jamiyatga ta'sir o'tkazish o'sha ta'sirning ruhiy-emotsional, psixologik, estetik mukammalligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada ekologik barqarorlikni ta'minlashga javobgar subyektlarning jamiyatshunos, ruhshunos olimlar bilan o'zaro hamkorligi ijobiy natijalarni taqdim etishi mumkin.

1. Fuqarolar va jamoat birlashmalarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga va shahar hokimiyatlariga atrof-muhitni boshqarishning turli jihatlariga taalluqli arizalar, shikoyatlar, takliflar, shu jumladan, ekologik ma'lumot so'rovlari bilan murojaatlari.

2. Mavjud ishlab chiqarish va boshqa obyektlarning ekologik xavfsiz ishlashi masalalarini jamoatchilik muhokamasi, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, ommaviy aksiyalar.

3. Ekologik ahamiyatga ega qarorlarni qabul qilishda jamoatchilik ishtirokining rasmiylashtirilgan usullari: referendumlar; atrof-muhitga ta'sirni baholash tartibi bo'yicha jamoatchilik muhokamalari; shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish masalalari bo'yicha jamoatchilik eshituvlari (hududiy rejalashtirish hujjatlari loyihalarini, yerdan foydalanish va rivojlantirish qoidalarini, hududni rejalashtirish hujjatlarini va boshqa holatlarni muhokama qilish); fuqarolar va ularning birlashmalarining davlat ekologik ekspertizasida ishtirok etishi; jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazish.

4. Fuqarolar va ularning birlashmalarining maslahat ishlarida ishtirok etish; davlat organlari huzuridagi ekspert va nazorat tuzilmalari¹¹.

A.Ahmedovning quyidagi qarashlari buni tasdiqlaydi: "Umuman ekologik faoliyat, xususan, ekologik nazorat jamiyatning ehtiyojidir. Chunki unda insonning ekologik faoliyati uchun zarur bo'lgan: bilim va malakalari, qobiliyat va iste'dodi, maqsad va manfaatlari reallashib, orzu-istaklari va ideallari amalda ro'yobga chiqadi, bu esa ekologik nazorat tizimining funksional namoyon bo'lishidir. Ma'lumki, ekologik ehtiyojlarning qondirilishi kishilarda tabiatni muhofaza qilishdan: ma'naviy qanoatlanish, estetik zavqlanish emotsional-ruhiy holatini hosil qilsa, amalga oshmagan ehtiyojlar, manfaatlar kishilarda ekologik qulay yashash sharoitini mavjud siyosiy tizimdan norozilik, passivlik, azoblanish, tushkunlik, depressiya kabi salbiy emotsiyalarni keltirib chiqaradi"¹².

Ko'rinib turibdiki, jamiyatga ta'sir o'tkazish o'sha ta'sirning ruhiy-emotsional, psixologik, estetik mukammalligiga ko'p jihatdan bog'liq. Bu borada ekologik barqarorlikni ta'minlashga javobgar subyektlarning jamiyatshunos, ruhshunos olimlar bilan o'zaro hamkorligi ijobiy natijalarni taqdim etishi mumkin.

Jamoatchilik ekologik nazoratiga xos xususiyatlardan yana biri bu uning ixtiyoriylik prinsipiga ko'ra olib borilishidir. Jamoatchilik asosida

¹¹ Чхутиашвили Л.В. Общественный экологический контроль: проблемы и перспективы // Правовая информатика. 2015. — № 4. — С. 55-58.

¹² Ахмедов А. Экологик назорат: назария, методология ва амалиёт. — Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2017. — Б. 73.

olib boriladigan faoliyat insondan alohida mas'uliyat va fidoyilikni talab qiladi. Chunki bunday faoliyat aksariyat hollarda moliyaviy qo'llab-quvvatlanmaydi. Inson mablag' to'lanmaydigan faoliyat bilan shug'ullanishi uchun unga kuchli motivatsiya, olib borayotgan faoliyati bevosita kelajak xavfsizligiga daxldor masala ekanligini anglashiga ko'maklashish talab etiladi. Demak, davlat organlari mazkur yo'nalishda tizimli faoliyat olib borishi, bunda targ'ibot, tashviqot, ruhiy-emotsional motivlar katta rol o'ynaydi. R Gizzatulinning bu boradagi ayrim fikrlari e'tiborni tortadi: "Ekologik nazoratga doir faoliyatni amalga oshirishda davlat nazorati organlariga ixtiyoriy va beg'araz asosda jamoat ekologik inspektori sifatida ko'maklashish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarini jamoatchilik muhokamasida ishtirok etishni ham o'z ichiga olishi kerak. Jamoat ekologik nazoratining eng muhim jihati bu subyekt tarkibidir. U fuqarolar, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi va davlat ekologik nazorati va ishlab chiqarish ekologik nazoratidan farqli o'laroq, jamoatchilik nazorati ixtiyoriydir"¹³.

Jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish, birinchi navbatda, qonunchilik asoslariga tayansa, ikkinchi navbatda, uni amalga oshiruvchi mexanizmlarning to'g'ri tashkil etilishi, qolaversa, nazorat subyektlarining ongli harakatini shartlab qo'yadi. Bunda nodavlat tashkilotlari, yoshlar uyushmalari, ko'ngilli fuqarolarning hamjihatlikdagi faoliyati tizim barqarorligini ta'minlaydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ekologik muammolarni hal etish jamoatchilik ekologik nazoratini olib borishning asosiy sharti sifatida qaralgani e'tiborga sazovor. O'zbekistonlik mutaxassis S.Samoylovga ko'ra, "Davlat, jamoat tashkilotlari, butun respublika aholisining sa'y-harakatlari ekologik vaziyatni yaxshilash masalalarini kompleks hal etishga qaratilgan. Mamlakatdagi sohaga mas'ul idoralar tabiat va inson salomatligini muhofaza qilishda faol ishtirok etish istagini bildirgan barchani birlashtirgan. Ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy islohotlarga ekologik yo'naltirilgan yondashuv O'zbekistonni barqaror rivojlantirishning eng samarali yo'lidir"¹⁴.

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan yigirmadan ortiq qonun va boshqa huquqiy hujjatlarning barchasida ekologik nazoratni tashkil qilish va olib borish jamoatchilik ishtirokini ta'minlash belgilab qo'yilgan bo'lib, ekologik barqarorlikni

Jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish, birinchi navbatda, qonunchilik asoslariga tayansa, ikkinchi navbatda, uni amalga oshiruvchi mexanizmlarning to'g'ri tashkil etilishi, qolaversa, nazorat subyektlarining ongli harakatini shartlab qo'yadi. Bunda nodavlat tashkilotlari, yoshlar uyushmalari, ko'ngilli fuqarolarning hamjihatlikdagi faoliyati tizim barqarorligini ta'minlaydi. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ekologik muammolarni hal etish jamoatchilik ekologik nazoratini olib borishning asosiy sharti sifatida qaralgani e'tiborga sazovor.

¹³ Гиззатуллин Равиль Хасанович. Общественный экологический контроль. Правовое государство: теория и практика. – № 4 (54), 2018. – С. 183.

¹⁴ Сергей Самойлов. Экологический контроль в ракурсе ННО. Правда востока, 25 февраля 2012 года.

Bugungi kunda tabiatga inson ko'rsatayotgan ta'sirning salbiy jihatlarini bartaraf etish, o'z navbatida, ijobiy ta'sirning oshishini ta'minlash bevosita insoning o'z qo'lidagi hodisadir. Shu sababli, masalaning yechimida inson omilining roli beqiyos bo'lib, u yoki bu tomonga hal etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

nazorat qilish, monitoringini o'tkazishda fuqarolarning faol ishtirokini ko'zda tutadi.

S.Samoylov jamoatchilik ekologik nazorati ekologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim vosita ekanligini e'tirof etib, quyidagi qarashlarni ilgari suradi: "Jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarining roli va o'rnini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha faoliyatda jamoat tuzilmalari faolligini har tomonlama oshirishning bir qismidir. Bunda jamoatchilik ekologik nazorati keng ma'noda ko'rib chiqiladi. Birinchidan, fuqarolarning hayoti va sog'lig'i uchun xavfsiz muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish kafolati sifatida hamda boshqaruvda ishtirok etish va ekologik ahamiyatga ega qarorlar qabul qilish bo'lsa, ikkinchidan, BMT tomonidan qabul qilingan "Axborotdan foydalanish, qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki va atrof-muhitga oid masalalar bo'yicha odil sudlovdan foydalanish to'g'risida"gi xalqaro Konvensiya tamoyillarining amalga oshirilishini ta'minlashdan iborat"¹⁵.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda tabiatga inson ko'rsatayotgan ta'sirning salbiy jihatlarini bartaraf etish, o'z navbatida, ijobiy ta'sirning oshishini ta'minlash bevosita insoning o'z qo'lidagi hodisadir. Shu sababli, masalaning yechimida inson omilining roli beqiyos bo'lib, u yoki bu tomonga hal etilishiga ta'sir ko'rsatadi. Ekologik faoliyat faollaridan biri B.Alixonovning qayd etishicha, ayni davrga kelib "120 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari ekologiya sohasida muntazam faoliyat olib bormoqda. Bugungi kunda ekologik nazoratni amalga oshirish tartibi, shakllari va turlarini, nazorat faoliyatini muvofiqlashtirish mazmuni va mexanizmini hamda davlat organlarining jamoatchilik bilan o'zaro hamkorligini to'liq ochib beradigan, shuningdek, ekologik nazorat chegaralarini aniq tartibga soluvchi shunday huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirish ehtiyoji mavjud"¹⁶.

Ma'lumki, aholi salomatligini oshirish ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir. Buyuk maqsadlarni amalga oshirish, eng avvalo, jismonan sog'lom, ma'naviy tafakkuri keng fuqarolarning zimmasiga yuklanadi. Bu esa mamlakatimizning ekologik siyosati va undagi ijobiy tendensiyalarga aloqador jihatlardan biridir. Shu sababdan jamoatchilik ekologik nazoratini tashkil etish va amalga oshirish umummilliy strategik ahamiyatga daxldor masaladir. Fikrimizcha, jamiyatda ekologik nazoratni

¹⁵ Сергей Самойлов. Экологический контроль в ракурсе ННО. Правда востока, 25 февраля 2012 года.

¹⁶ Алиханов Б. Общественный экологический контроль как важный фактор сохранения экосистемы. Народное слово. 24.07.2013.

tizimli amalga oshirishning ijtimoiy ahamiyati o'ta muhim va dolzarb bo'lib, u quyidagi yo'nalishlarni o'zida namoyon qilishi lozim:

– jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy guruhlarni tashkil qilish, mahalliy hokimiyat idoralari muayyan hududdagi ekologik vaziyatdan kelib chiqib, mavjud muammolarni bartaraf etish sohasidagi hamkorlikni kuchaytirishi;

– jamoatchilik faollari orasidan tayinlangan jamoatchilik inspektorlarining huquq va majburiyatlarini tushuntirish, vakolatlarini belgilash va rag'batlantirish choralarini ko'rishi;

– mintaqadagi mavjud ekologik vaziyatdan kelib chiqib, ekologik holatni yaxshilash va barqarorlashtirish bo'yicha jamoatchilik inspektorlarining taklif va tavsiyalarini muntazam o'rganib borish va muammoning yechimlariga qaratilgan qarorlar qabul qilishi;

– tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan ehtiyotkorona foydalanish bo'yicha aholiga keng targ'ibot va tashviqot hamda tushuntirish ishlarining muntazam olib borishi;

– muayyan hududda joylashgan ishlab chiqarish korxonalarining atrof-muhitga zarar yetkazishining oldini olish bo'yicha mahalliy hokimiyat va fuqarolar o'rtasida o'zaro muloqotni tashkil etish, fuqarolarning atrof-muhitdan foydalanishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda yordam berishi.

Davlat idoralari, vakolatli organlar, jamoatchilik ekologik nazorati vakillari va fuqarolar o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, mintaqadagi eng asosiy ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan jamoatchilik kengashlarini tashkil etish, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik ekspertizasi va jamoatchilik surishtiruv kabi vositalar yordamida vakolatli organlar hisobotlarini tinglash va tegishli qarorlar qabul qilish jamoatchilik ekologik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy yechimlari bo'la oladi.

Atrof-muhit muhofazasi faqat qonunlarni qabul qilish bilan hal bo'lmaydi. Ijro mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilikni ekologik jarayonlarga keng jalb qilish zarur. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin:

1. Jamiyat a'zolariga atrof-muhit muhofazasi kelajakka daxldor masala ekanligini yetkazish, inson hayoti va salomatligidan qimmatroq narsa yo'qligi, qolaversa jamiyatda mavjud resurslardan nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlod ham foydalanish huquqiga ega ekani turli usul va vositalar yordamida tushuntirish ehtiyojiga bog'liq.

2. Fuqarolar va jamoatchilikning atrof-muhit muhofazasidagi faol ishtiroki natijadorlik nuqtayi nazaridan ijobiy ahamiyat kasb etadi. Bunda mahalliy vaziyatdan kelib chiqib, qabul qilinadigan qarorlarni ekologik

Atrof-muhit muhofazasi faqat qonunlarni qabul qilish bilan hal bo'lmaydi. Ijro mexanizmlarini takomillashtirish, jamoatchilikni ekologik jarayonlarga keng jalb qilish zarur.

***O‘zbekiston
Respublikasining
“Jamoatchilik
nazorati
to‘g‘risida”gi
Qonunini
Ommaviy ishtirok
to‘g‘risidagi
Qonun desa
bo‘ladi. Ushbu
Qonunning
6-moddasida
ommaviy
ishtirokning
asosiy shakllari
mustahkamlangan
va tartibga
solingan bo‘lib,
unda jamoatchilik
nazorati qonun
hujjatlariga
muvofig boshqa
shakllarda ham
amalga oshirilishi
qayd etilgan.***

barqarorlikka foydasi tegadigan qilib tayyorlash, muhokama qilish va qabul qilishdagi ishtirok fuqarolarning ekologik jarayonlarga e‘tibori oshishini ta‘minlash.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilishda mavjud muammolarga jamoatchilikni keng jalb etish jamiyat a‘zolarining ekologik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan tizimli harakat ekanligini anglashiga yordam beradi va shu bilan birga, fuqarolar faolligi ta‘minlanib, davlat organlarining fuqarolar oldidagi mas‘uliyatini oshiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonunini Ommaviy ishtirok to‘g‘risidagi Qonun desa bo‘ladi. Ushbu Qonunning 6-moddasida ommaviy ishtirokning asosiy shakllari mustahkamlangan va tartibga solingan bo‘lib, unda jamoatchilik nazorati qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shakllarda ham amalga oshirilishi qayd etilgan. Davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “Jamoatchilik nazorati – bu faqatgina davlat idoralari faoliyati ustidan nazorat emas, balki jamiyatning o‘zini o‘zi boshqarish usuli, boshqacha aytganda, fuqarolik jamiyatini taraqqiy toptirishning muhim omillaridan biridir”¹⁷.

2025-yil yakunigacha respublika hududi bo‘yicha atmosfera havosining tabiiy ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlarni prognozlash va aholini barvaqt ogohlantirish tizimi sinov tariqasida joriy etiladi.

2024-yil yakunigacha hududlarni ekologik baholash bo‘yicha indikatorlar “eco-indicator.uz” reytingi asosida shakllantiriladi va har bir hududning ekologik pasporti e‘lon qilinadi.

2024-yil 1-yanvardan uy sharoitida yoki kasanachilik asosida daraxt va buta ko‘chatlarini, ya‘ni nihol yetishtirish faoliyati o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) hisoblanadi.

Ayni paytda ushbu masalalarni hal etishda davlat organlari bilan birga fuqarolik jamiyati institutlari hamda mahalla faollari har bir oilaga kirib, ya‘ni oilabay, fuqarobay ishlarni tashkil qilib, aholi orasida keng tushuntirish va targ‘ibot ishlarini olib bormoqda. Bu boradagi ustuvor vazifalarni hayotga tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 27-dekabrda qabul qilingan “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur qonunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida mutlaqo yangi yo‘nalish – fuqarolarning

¹⁷ Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза // <https://prezident.uz/uz/lists/view/3119>.

o‘zini o‘zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari huzurida ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlari institutini joriy etish belgilangan. Ekologik nazoratning jamoatchi inspektori vakolatlari, majburiyatlari, jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishning usul va yo‘llari, uning natijalarini rasmiylashtirish, davlat organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari muhimdir.

Yakuniy qism. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish borasidagi dolzarb masalalarga yechim topish ko‘p jihatdan aholining ekologik bilim darajasi va tabiatdan foydalanish madaniyatiga bog‘liq ekanligiga muhim e‘tibor qaratish kerak. Bu boradagi zarur bilimlarni o‘rganish, ularga qat‘iy amal qilish va salbiy o‘zgarishlarning oldini olish, aholi o‘rtasida ekologik madaniyatni yanada rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining o‘rni yuqori ekanligini qayd etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Ўзбекистон Республикасининг 2013 йил 27 декабрдаги “Экологик назорат тўғрисида”ги ЎРҚ-363-сонли Қонуни* // <https://lex.uz/docs/2304953>
2. *Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б. 392.*
3. *Мирзиёев Ш.М. Конституция ва қонун устуворлиги – ҳуқуқий демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза* // <https://prezident.uz/uz/lists/view/3119>
4. *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 4 июлдаги “Давлат органлари ҳузурида жамоатчилик кенгашлари фаолиятини таъкил этиши чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3837-сон қарори (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.07.2018 й., 07/18/3837/1454-сон; 30.05.2019 й., 06/19/5733/3216-сон; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 15.06.2022 й., 06/22/154/0524-сон; 13.04.2023 й., 06/23/49/0210-сон).*
5. *Ахмедов А. Экологик назорат: назария, методология ва амалиёт. – Тошкент: “Адабиёт учқунлари”, 2017. – Б. 73.*
6. *Алиханов Б. Общественный экологический контроль как важный фактор сохранения экосистемы. Народное слово, 24 июня 2013 года.*
7. *Гиззатуллин Р.Х. Общественный экологический контроль. Правовое государство: теория и практика. – № 4 (54), 2018. – С. 183.*
8. *Дубовик О.Л. Экологическое право: учеб. 3-изд., перераб. и доп. – Москва: Проспект, 2010. – С. 37.*
9. *Жамоатчилик назорати* // <https://advice.uz/uz/document/2356>
10. *“Жамоатчилик назорати тўғрисида”ги Қонун* // <https://lex.uz/doc/3679092/>
11. *Мусаева М.Э. Миллий қадриятлар воситасида ўқувчиларда экологик маданиятни шакллантириши* // *Современное образование (Узбекистан). – № 5, 2016.*

12. Мусурмонова Ш.И. Инсонларнинг табиатга эстетик муносабатини шакллантиришда экологик таълим тарбиянинг роли // *Интернаука*. – 2019. – №. 37.
13. Низомулмулк. *Сиёсатнома ёки сияр ул-мудук*. – Тошкент: Адолат. 1997. – Б. 98.
14. Алимардонов Т. *Амир Темур империяси. Янги аср авлоди*, 2021. – Б. 117.
15. Туляков Э. *Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим* // <https://strategy.uz/index.php?news=799>.
16. Чхутиашили Л.В. *Общественный экологический контроль: проблемы и перспективы* // *Правовая информатика*. 2015. № 4. С. 55-58.
17. Сергей Самойлов. *Экологический контроль в ракурсе ННО*. *Правда востока*, 25 февраля 2012 года.
18. Ўринбоева М.С. *Табиатга экологик муносабатларнинг маънавий-ахлоқий тамойиллари ва мезонлари* // *Science and Education*. – 2020. – Т. 1. – №. 2.